

O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGINI SOSIALISTIK ASOSDA QAYTA QURISH JARAYONIDA AYOLLAR MEHNATI

Annotasiya. Ushbu maqolada XX asrning 20–30-yillarida O'zbekistonda qishloq xo'jaligini socialistik asosda qayta qurish jarayonida ayollar mehnatining o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Kollektivlashtirish siyosatining amalga oshirilishi natijasida o'zbek qishloq ayollarining iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligida yuz bergan o'zgarishlar arxiv materiallari va rasmiy qarorlar asosida yoritilgan. Ayollarning kolxoz va sovxoz tizimidagi ishtiroki, ular uchun tashkil etilgan ta'lim kurslari, malaka oshirish muassasalari va kasaba uyushmalari faoliyati ochib berilgan. Shuningdek, maqolada teng mehnat uchun teng haq to'lash tamoyilining amaliyotda qo'llanilishi va buning ayollarning iqtisodiy mustaqilligiga ta'siri tahlil etilgan. Tadqiqotda tarixiy-tahliliy va qiyosiy usullardan foydalanilgan bo'lib, natijada qishloq xo'jaligida ayollar mehnatining faollashuvi O'zbekistonda gender tengligi va ijtimoiy rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida baholangan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston SSR, kollektivlashtirish, ayollar mehnati, qishloq xo'jaligi, kolxoz, sovxoz, gender tengligi, ijtimoiy faollik, sovet siyosati, iqtisodiy mustaqillik.

ТРУД ЖЕНЩИН В ПРОЦЕССЕ СОЦИАЛИСТИЧЕСКОЙ ПЕРЕСТРОЙКИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В статье исследуется роль и значение труда женщин в процессе социалистической перестройки сельского хозяйства Узбекистана в 1920–1930-е годы. На основе архивных данных и официальных постановлений раскрывается влияние политики коллективизации на экономическую, социальную и политическую активность узбекских крестьянок. Рассмотрено участие женщин в колхозах и совхозах, организация для них специальных курсов, школ и кружков, а также деятельность профсоюзов в повышении квалификации женских кадров. Особое внимание уделено внедрению принципа «равная оплата за равный труд» и его влиянию на экономическую независимость женщин. В результате анализа установлено, что активизация женского труда в сельском хозяйстве стала одним из ключевых факторов утверждения гендерного равенства и социального развития в Узбекистане в первой половине XX века.

Ключевые слова: Узбекистан ССР, коллективизация, женский труд, сельское хозяйство, колхоз, совхоз, гендерное равенство, социальная активность, советская политика, экономическая независимость.

WOMEN'S LABOR IN THE PROCESS OF SOCIALIST RECONSTRUCTION OF AGRICULTURE IN UZBEKISTAN

Abstract. This article examines the role and significance of women's labor in the process of socialist transformation of agriculture in Uzbekistan during the 1920s–1930s. Based on archival sources and official documents, the study analyzes the impact of collectivization policies on the economic, social, and political activity of Uzbek rural women. The paper explores women's participation in collective and state farms, the establishment of training courses and educational institutions for women, and the role of trade unions in improving their professional skills. Special attention is given to the introduction of the principle of "equal pay for equal work" and its influence on women's economic independence. The study concludes that the increasing participation of

women in agricultural production became a key factor in promoting gender equality and social development in Uzbekistan during the first half of the twentieth century.

Keywords: Uzbek SSR, collectivization, women's labor, agriculture, kolkhoz, sovkhoz, gender equality, social activity, Soviet policy, economic independence.

Kirish

XX asrning 20–30-yillari O'zbekiston tarixi uchun chuqur ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar davri bo'ldi. Bu davrda qishloq xo'jaligini socialistik asosda qayta qurish, ya'ni kollektivlashtirish jarayoni amalga oshirildi. VKP(b) s'ezdlari qarorlari asosida respublikaning barcha hududlarida kolxoz va sovxozlar tashkil etildi, bu esa jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tubdan o'zgartirdi. Ayniqsa, bu jarayon o'zbek qishloq ayollarining hayoti va mehnat faoliyatida yangi davrni boshlab berdi. Ayollarning kolxoz va sovxoz tizimidagi ishtiroki nafaqat ishlab chiqarishdagi ulushini oshirdi, balki ularning jamiyatdagi maqomini, huquqiy va iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qildi. Sovet hukumati tomonidan "ayolning to'liq ozodligi va teng huquqliligi faqat jamoaviy mehnat orqali ta'minlanadi" degan g'oya amaliyotda tadbqiq etila boshladi. Natijada ayollar qishloq xo'jaligining turli sohalarida — pillachilik, bog'dorchilik, sutchilik, parrandachilik kabi yordamchi tarmoqlarda faol ishtirok eta boshladilar. Shu bilan birga, ayollar mehnatini samarali yo'lga qo'yish va ularning malakasini oshirish maqsadida maxsus kurslar, texnikumlar va o'quv markazlari tashkil etildi. Davlat miqyosida qabul qilingan qarorlar, jumladan, "Ayollar mehnatining besh yillik rejasi" kabi hujjatlar ayollarning qishloq xo'jaligidagi rolini mustahkamlashga xizmat qildi. XX asrning 20-yillari oxirlari 30-yillari boshlarida O'zbekiston SSRda kolxoz va sovxozlarni tashkil etish harakati keng miqyosda rivojlandi. VKP (b)ning XV–XVI s'ezdlari qarorlariga asosan amalga oshirilgan kollektivlashtirish jarayoni qishloq xo'jaligida sozializm g'alabasini mustahkamlashi kerak edi.

Tadqiqot metodlari

Maqolani tayyorlash jarayonida tarixiy-tahliliy, qiyosiy, tizimli yondashuv va qonun hujjatlarini tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Arxiv ma'lumotlari, rasmiy qarorlar, VKP(b) s'ezdlari materiallari hamda 1920–1930-yillar matbuot manbalari asos qilib olindi. Tarixiy tahlil usuli yordamida kollektivlashtirish siyosatining qishloq ayollar mehnatiga ta'siri ochib berildi, qiyosiy usul orqali esa O'zbekiston misolida ayollar faolligining o'sishi boshqa ittifoq respublikalari tajribasi bilan taqqoslab ko'rsatildi. Shuningdek, iqtisodiy tahlil orqali ayollar mehnati ulushining qishloq xo'jaligi samaradorligiga ta'siri baholandi.

Natijalar

Kollektivlashtirish jarayoni ayniqsa o'zbek dehqon ayoli hayotida muhim ahamiyat kasb etdi. O'zbekistonda mashinalar-traktor stansiyalari (MTS), sovxozlar va kolxozlar barpo etilishi ayollarning ozodligi va jamiyatdagi chindan teng huquqliligini ta'minlash uchun yangi shart-sharoit yaratish uchun kurash davri bo'ldi. V.I. Lenin 1918 yilning o'zidayoq shunday ta'kidlagan edi: "Faqat shundagina, ya'ni mayda xo'jaliklardan umumiy erga va uni jamoaviy ishlab chiqarishga o'tilgandagina, ayollarning to'liq ozodligi va erkinligi ta'minlanadi[1, -C. 86]". O'zbekiston ayollarining asosiy qismi yangi xo'jalik shakllarini qo'llab-quvvatladi. Ular yakka xo'jalikda mehnat qilishdan ko'ra kolxoz ishiga o'tishi mehnat va turmush sharoitlarining yaxshilanishiga olib keladi deb tushuntirildi. Kolxoz a'zosi sifatida ayol jamoaviy mehnatning ajralmas qismiga aylandi, bu esa mehnat taqsimotining jamoaviy shaklda qaror topishiga zamin yaratdi.

Aslida yakka dehqon xo'jaliklari sharoitida ayollar mehnati ularning xoxish – istaklariga qarab belgilangan bo'lsa, sovet hukumati davrida hukumatning bevosita ko'rsatmalari asoida kunlik 14–16 soat mehnat qilish majburiyati beligandi. E'tiborli jihati, me'yoriy – huquqiy hujjatlarda kolxozlarda ayollar va erkaklar uchun bir xil mehnatga teng haq to'lash tizimi joriy etilgani qayd etilgan. Bu esa erkak va ayol mehnati o'rtasidagi farqning yo'qolishiga xizmat qildi.

Shu bilan birga Sharq despotiyasi tamoillari, ya'ni an'anaviy xo'jalik ishlab chiqarish ukladida ayolni ishlab chiqarish jarayonida ikkinchi darajali o'rinda qoldiruvchi asrlar davomidagi an'anani bartaraf etish zarur edi. Shu bois erkak va ayol mehnatining teng qiymatli bo'lishi ayollarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri sifatida qaraldi.

- 36 Kolxozlarga a'zo bo'lish orqali ayollar mustaqil daromad manbaiga ega bo'ldilishi ko'zda tutildi. Ta'kidlash joizki, kollektivlashtirishning dastlabki yillaridayoq kolxozlarda ayollarning daromadi oilaning umumiy daromadining o'rtacha 23 foizini tashkil etgan[2, -B. 30].

Muhokama

Dastlabki bosqichlarda ayollar malaka darajasining pastligi sababli asosan engil jismoniy mehnat turlariga jalb etilgan edilar. Shu bilan birga, ayollar mehnat malakasining oshishi ularning moddiy farovonligini yaxshilash hamda kolxoz mehnati samaradorligini oshirishning muhim sharti sifatida qaraldi. Shu maqsadda O'zbekistonda turli o'quv muassasalari, maktablar va kurslar tarmog'ini tashkil etish ishlari boshlab yuborildi.

1929 yilga kelib respublikada Samarqand shahrida kooperativ-hisobchilik kurslari, rahbarlik ishlari uchun batrak va batrachkalarni tayyorlash kurslari, ishchi-kambag'allarni rabfak va oliy o'quv yurtlariga tayyorlovchi kechki kurslar, ayollar klublari, kiyim tikish va tikuvchilik maktablari faoliyat ko'rsata boshladi[3, -B.12].

Qishloq xo'jaligida ayollar faolligini oshirish maqsadida O'zbekiston SSR Sovetlarining III s'ezdida Yu. Axunbabaevning ayollarning amaliy ozod qilinishi haqidagi ma'ruzasi bo'yicha rezolyusiya qabul qilindi. Ushbu hujjatda shunday ta'kidlangan edi: «Ayollarning amaliy ozod etilishiga oid direktivalarning bajarilishi ustidan nazorat va ishni kuchaytirish, sovet, xo'jalik va kooperativ tashkilotlar rejalarida ayollarning amaliy ravishda ozod etilishi masalalari muhim o'rin egallashiga erishish zarur[4, -B.12]».

Qishloq xo'jaligi sohasida s'ezd quyidagi vazifalarni belgilab berdi:

- a) kolxoz va sovxozlarda ayol mehnatidan kengroq foydalanish orqali qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida dehqon ayollar ulushini oshirish, ya'ni ayollarni qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlariga jalb etish hamda kolxozlar tarkibida ayollar mehnati samarali qo'llanilishi mumkin bo'lgan yordamchi tarmoqlarni (pillachilik, bog'dorchilik, sutchilik, parrandachilik va boshqalarni) rivojlantirish;
- b) kooperasiya, kreditlash, agronomik xizmat ko'rsatish hamda namunaviy madaniy xo'jaliklar tashkil etish yo'li bilan ayollar xo'jaliklariga samarali yordam ko'rsatish;
- v) dehqon ayollarning malakasini oshirish maqsadida turli kurslar, maktablar va o'quv muassasalarini tashkil etish[5, -B. 14].

Ayollarning amaliy ozodligi uchun kurashda qishloq xo'jaligi xodimlari kasaba uyushmasi muhim rol o'ynadi. 1928 yilda ushbu uyushma tarkibida 5883 nafar ayol bo'lib, shularning 1627 nafari mahalliy millat vakillari edi; bu uyushmaning umumiy a'zolari sonining 11,4 foizini tashkil etar edi. 1929 yilga kelib, ayollar ulushi 12,5 foizga etdi.

Ayollar mehnat faolligining o'sishi davlat qishloq xo'jalik korxonalarida ularning ishtiroki ko'payishi bilan bir qatorda, kolxoz a'zolari orasidagi ulushining ortishida ham namoyon bo'ldi. Masalan, O'zbekistonda 1928–1929 yillarda ayollar kolxozchilarning 2,2 foizini tashkil etgan bo'lsa, 1930 yilda bu ko'rsatkich 4,5 foizga, 1931 yilda esa 8,5 foizga etdi.

Ayol mehnatini qishloq xo'jaligida yanada faollashtirish maqsadida 1929 yilda Toshkent okrugi bo'yicha batrachka-ayollarning Birinchi konferensiyasi chaqirildi. Konferensiya o'tkazilgan vaqtda kooperasiyaga jalb etilgan qishloq xo'jaligi ishchilari va batrachkalar soni 1577 nafarni tashkil etar edi, shulardan 379 nafari o'zbek ayollari bo'lgan.

1929 yil 13 maydagi SSSR Xalq Komissarlar Soveti qarorida shunday ta'kidlangan edi: «Qishloq ayollarining maxsus sheriklik jamiyatlari va artellardagi ishtirokiga keng yo'l ochish uchun qat'iy choralar ko'rish zarur, ayniqsa ayol mehnati ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlarda. Shuningdek, tarkibida asosan ayollar faoliyat yuritadigan artellarga xizmat ko'rsatishni kuchaytirish zarur, xususan, Markaziy Osiyo hududlarida[6, -B. 616] ».

Ayollarni qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga keng jalb etish jarayonida ularni og'ir jismoniy mehnatdan ozod etish zaruratini ham hisobga olish lozim edi, chunki bunday mehnat turlari faqat erkaklar tomonidan bajarilishi mumkin edi. Shu bois, 1931 yilda qabul qilingan SSSR Xalq Komissarlar Soveti qarori — «Ayollar mehnatining besh yillik rejasi to'g'risida» — asosida Davlat rejalashtirish qo'mitasi (Gosplan) va Mehnat xalq komissariatiga ayrim ishlab chiqarish tarmoqlarida ishchi kuchini qayta taqsimlash tavsiya etildi. Ya'ni erkaklarni engil mehnat

turlaridan og'irroq ishlarga, ayollarni esa aksincha — engil mehnat turlariga o'tkazish vazifasi qo'yildi[7, -B. 7].

Bu, o'z navbatida, Xalq Komissarlar Soveti qarorlari asosida ayollarni o'quv muassasalariga qabul qilish bo'yicha muayyan limitlarni belgilash bilan bog'liq bo'ldi. O'zbekiston uchun 1930–1931 yillar davrida mazkur limitlar quyidagi foiz ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi[8, -B. 5].

Iqtisodiy tarmoqlar kesimidagi ta'lim muassasalari	OTM	Texnikumlar
Qishloq xo'jaligi	30	40
Sanoat	20	20
Qurilish	20	20
Transport	20	20
Savdo	30	40

Ayollarni mahalliy sovet organlari faoliyatiga kengroq jalb etish maqsadida O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (MIQ) 1931 yilda Toshkent shahrida qishloq sovetlari raislari uchun ikki oylik markaziy kurslar tashkil etish haqida qaror qabul qildi. Ushbu kurslarda to'liq kollektivlashtirilgan hududlar hamda muhim paxtachilik rayonlaridan bo'lgan ayollar ham ishtirok etdilar[9, -B. 22].

1932 yilda esa KUBT tizimi orqali ayol "selsovetchisa"larni tayyorlash va qayta tayyorlashga qaratilgan olti oylik maxsus kurslar tashkil etildi. Bu kurslarning dastlabki bitiruvchilari orasida 12 nafar kolxozchi ayol muvaffaqiyatli ta'limni yakunladi.

Xulosa

O'zbekistonda qishloq xo'jaligini socialistik asosda qayta qurish jarayoni ayollarning ijtimoiy hayotga faol jalb etilishi va mehnat faolligining oshishi bilan tavsiflanadi. Kollektivlashtirish siyosatining amalga oshirilishi natijasida o'zbek ayollari ilk bor iqtisodiy mustaqillikka ega bo'lib, mehnat bozorining to'laqonli ishtirokchilariga aylandilar. Sovet hukumati tomonidan amalga oshirilgan tashkiliy va ta'lim islohotlari — ayollar uchun tashkil etilgan kurslar, klublar, malaka oshirish muassasalari — ularning siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga zamin yaratdi. Shu bilan birga, teng mehnat uchun teng haq to'lash tamoyilining joriy etilishi ayol va erkak mehnatining qiymatini yaqinlashtirdi. Biroq bu jarayon turli muammolarsiz kechmadi: an'anaviy dunyoqarash, mahalliy sharoit va og'ir mehnat sharoiti ayollar uchun qator qiyinchiliklar tug'dirdi. Shunga qaramasdan, XX asrning birinchi yarmida amalga oshirilgan siyosiy va iqtisodiy choralar natijasida ayollar mehnati qishloq xo'jaligining ajralmas qismiga aylandi. Bu esa O'zbekistonda gender tengligi va ayollarning ijtimoiy faolligini ta'minlash yo'lidagi muhim tarixiy qadam bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. В.И.Ленин. полное собрание сочинений, т. 37. —С. 186.
 2. O'zbekiston Milliy arxivi 86-fond, 1-ro'yxat, 7999-yig'ma jild, 30-varaq
 3. O'zbekiston Milliy Arxivi 86-fond, 1-ro'yxat, 7999-yig'ma jild, 12-varaq
 4. O'zbekiston Milliy Arxivi 775-fond, 1-ro'yxat, 24-yig'ma jild, 12-varaq
 5. O'zbekiston Milliy Arxivi 775-fond, 1-ro'yxat, 247-yig'ma jild, 14-varaq
 6. Постановление СНК СССР от 13/V1929 г., Сборник законов, 66-69. —С. 619
 7. O'zbekiston Milliy Arxivi 328-fond, 1-ro'yxat, 330-yig'ma jild, 7-varaq
 8. O'zbekiston Milliy Arxivi 328-fond, 1-ro'yxat, 330-yig'ma jild, 5-varaq
- O'zbekiston Milliy Arxivi 328-fond, 1-ro'yxat, 6669-yig'ma jild, 22-varaq